




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2025- YIL
YANVAR-FEVRAL**

2025- yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatida jami 3372,0 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 122,2 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.





2025- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1249

•Bino va inshootlar qurish

370

•Fuqarolik obyektlarini qurish

846

•Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2024- yilning shu davriga nisbatan 88,2 % ni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaranganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 50,7 % ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,5 % ni;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,1 % ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 98,7 % ni;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 34,3 % ulushni va o'tgan yilga nisbatan 85,1 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.03.2025- y.	01.03.2024- y.	
Toshkent viloyati	2465	2907	84,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	114	125	91,2
Olmalik	113	137	82,5
Angren	136	172	79,1
Bekobod	95	121	78,5
Ohangaron	70	106	66,0
Chirchiq	277	291	95,2
Yangiyo'l	72	76	94,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	51	62	82,3
Ohangaron	59	57	103,5
Bekobod	67	84	79,8
Bo'stonliq	104	125	83,2
Bo'ka	75	104	72,1
Quyi Chirchiq	48	64	75,0
Zangiota	203	232	87,5
Yuqori Chirchiq	150	184	81,5
Qibray	258	293	88,1
Parkent	85	91	93,4
Piskent	52	63	82,5
O'rta Chirchiq	120	149	80,5
Chinoz	66	90	73,3
Yangiyo'l	99	130	76,2
Toshkent	151	151	100,0



2025- yil 1- mart holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da


Chirchiq sh. (11,2)



Qibray (10,5)




Zangiota (8,2)



Qurilish ishlari 2025- yil yanvar-fevral oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofimalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	3372	651,3	1282,7	1438
shaharlar:				
Nurafshon	99,1	1,4	92,6	5,1
Olmalik	538,2	498,8	37,8	1,6
Angren	66,9	5,1	54,3	7,5
Bekobod	41,1	0,4	33,1	7,6
Ohangaron	24,2	9	8,3	6,9
Chirchiq	91,1	0	84,9	6,2
Yangiyo'l	36,1	0,7	33,6	1,8
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	48,2	0	40,4	7,8
Ohangaron	66,2	0	48,5	17,7
Bekobod	22,3	0	7,2	15,1
Bo'stonliq	107,1	19,2	27,4	60,5
Bo'ka	68,9	0	55,5	13,4
Quyi Chirchiq	90,9	1,1	62,5	27,3
Zangiota	196,4	1,2	84,1	111,1
Yuqori Chirchiq	140,9	3,2	79,2	58,5
Qibray	288,6	49,2	115,8	123,6
Parkent	58,9	1,6	27,3	30
Piskent	65	0	59,4	5,6
O'rta Chirchiq	104	0	46,8	57,2
Chinoz	36,4	0,3	28,2	7,9
Yangiyo'l	66,5	14,3	32,4	19,8
Toshkent	112,2	0,9	61,6	49,7
Яширин иқтисод	1002,8	44,9	161,8	796,1

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 651,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilga nisbatan 198,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2024- yildagi ko'rsatkich darajasidan 17,9 % ni tashkil etdi.



2025- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 38,0 % ga to'g'ri kelib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 5,6 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,7 % ni tashkil etgan holda 1282,7 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da

38,0

2025- yil
Yanvar-fevral

43,6

2024- yil
Yanvar-fevral



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qibray tumani (288,6 so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 9,0 %), Nurafshon shahri (99,1 mlrd. so'm yoki 7,2 %), Zangiota tumani (196,4 mlrd so'm yoki 6,6 %) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 42,6 % tashkil etdi yoki 1438,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi. 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 115,7 % ni tashkil etdi.

2024- yil
yanvar-fevral

1163,9
mlrd so'm


2025- yil
yanvar-fevral

1438,0
mlrd so'm

43,6%

42,6%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 41,3 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3330,7 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 1,2 % va 98,8 % ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra qurilish sohasi sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3- o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70